

O`QUVCHI YOSHLARNING IJTIMOY FAOLLIK ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXY MEROSDAN FOYDALANISH

Husanov Obidjon Ibodullayevich

Qashqadaryo viloyatii

Yakkabog` tumani 14-umumiy o`rta ta`lim maktabining oliy toifali tarix fani o`qituvchisi

Annotatsiya

O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatishda tarixiy merosdan foydalanish muhim rol o`ynaydi. Foydalanish jarayonida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda o`quvchi tarix darslarining amaliyotini amalga oshiradi.

Kalit so`zlar: Renessans, sivilizatsiya, tarixiy meros

O`zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni ta`lim tizimini tubdan isloh qilish va uni rivojlantirishning strategik yo`nalishlarini belgilab berdi. Shundan kelib chiqib, hujjatda shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining asosiy subyektini sifatida qaraladi, demak, Respublikada amalga oshirilayotgan o`zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi – inson, uning barkamol rivojlanishi hisoblanadi. Savol tu`giladi: Inson qachon barkamol, komil inson bo`ladi? Qachonki, u jismonan sog`lom, vijdonan pok, ma`naviyati yuksak bo`lsa. Bunda o`lib kelayotgan yosh avlodga beriladigan ta`lim-tarbiyaning o`rni beqiyosdir. Darhaqiqat, bugun yosh avlodga tarbiya berishdik murakkab vazifani hal etishda barcha ta`lim muassasalari, jumladan, maktabgacha ta`lim muassasalari va umumiy o`rta ta`lim maktablari juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joylarda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan boshlang`ich kompetensiya elementlarini oladilar. Maktab yoshlarining dunyoqarashlariga poydevor hamda g`oyaviy e`tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxti-saodati yo`lida sidqidildan mehnat qilishga zamin yaratadi. Unda esa o`qituvchi yo`naltiruvchi vazifasini bajaradi. O`qituvchining dunyoviy, ilmiy, tarixiy, falsafiy, lingvistik, pedagogik va psixologik bilimlari o`quvchi yoshlarning ijtimoiy faollik elementlarini shakllantirishdagi vositasi bo`lib xizmat qiladi. O`qituvchi qaysi fan mutaxassisi bo`lishidan qat`iy nazar, milliy an`analarni, tarixiy qadriyatlar, tarixiy meros va ularning dunyo sivilizatsiyasida tutgan o`rnini bilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “O`rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va

ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida: “O`rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta`lim-tarbiya , tibbiyot, adabiyot, san`at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yusalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste`dodli avlodlar to`lqinining paydo bo`lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi birinchi navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo`jaligining ancha jadal o`sisini, hunarmandchilik va savdo sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo`llar qurilishi, yangi karvon yo`llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta`minlanishi bilan bevosita bog`liq bo`lgan”, deya bejiz ta`kidlamadi. Chunki, ushbu amalga oshirilgan ishlar qoldirilgan boy tarixiy meros barcha fanlar, xususan falsafa, tilshunoslik, madaniyat, pedagogika, psixologiya, estitika, tibbiyot va arxitektura kabi birqator sohalarga asos bo`lib xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida IX-XII va XIV-XV asrlarda ikki qudratli ilmiy –madaniy yuksalish Sharq uyg`onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Bugungi O`zbekistondagi ilmiy-texnikaviy yangiliklar Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta`biri bilan aytganda, Uchinchi Renessans deb yuritilmoqda. Amir Temur hukmronlik qilgan davrida jahonning bir qancha shaharlaridan Samarqandga ko`plab hunarmandlar, olimlar, san`atkorlar, muhandislar olib kelindi. Samarqand va Hirotida madrasalar, kutubxonalar va rasadxonalar qurildi. Tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, jug`rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid bir qancha ajoyib asarlar yaratildi.

Bugungi kun o`qituvchisi buyuk ajdodlarimiz yaratgan nodir asarlar, mashhur inshootlarni, boy merosimizni kelajak avlodga o`rgatib, ularda vatanga bo`lgan muhabbatni yanada kuchaytirishi lozim. Qolaversa yurtimizning qadimiy shaharlari, muzeylariga sayohat orqali o`quvchilarni maktabga tarix fanidan olgan bilimlarini yanada chuqurlashtirishi mumkin.